

GLOBAL IQLIM O'ZGARISHINING EKOLOGIK-HUQUQIY MUAMMOLARI

Rasulov Baxtiyor Shavkatovich

Toshkent davlat yuridik universiteti Atruf-muhit huquqi va barqaror
rivojlanish mutaxassisligi magistr talabasi

Anatatsiya:Maqolada bugungi kunda dunyodagi global iqlim o'zgarishining ekologik asoslari va muammolari va ularning huquqiy tomonlari yoritilgan. Maqolada muallifning fikr va takliflari qayd etilgan.

Kalit so'zlar:Iqlim o'zgarishi, global isish, issiqxona effekti, konvensiya, protokol, atmosfera, xalqaro ekologiya, xalqaro pakt, bioxilma-xillik, ekstremal ob-havo, ratifikatsiya, uglerod chiqindilari.

KIRISH:Hozirgi kunda iqlim o'zgarishi, global isish, atmosfera havosining ifloslanishi shuningdek, ozon qatlamining yemirilishi bilan bo'g'liq masalalar insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolardan biri ekani jahon hamjamiyati tomonidan tan olingan. Iqlim o'zgarishi inson hayotining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatmoqda va iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini oldini olish hamda yangi hayot sharoitlariga moslashish bo'yicha kechiktirilmaydigan choralar ko'rishni talab etmoqda.

Zamonaviy ilm-fan insonning avvalambor qazib olinadigan yoqilg'ini yondirish natijasida issiqxona gazlarining chiqarilishi bilan bog'liq xo'jalik faoliyati iqlimga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlovchi jiddiy asoslar taqdim qilmoqda.

O'zbekistonda 1880 yildan to hozirgi vaqtgacha bo'lgan davrda o'rtacha yillik harorat 1,6 daraja (13, 2 dan 14,8 °S gacha) oshdi, bu global miqyosda kuzatilayotgan o'rtacha sur'atlardan yuqoridir. Mutaxassislarning prognozlariga ko'ra 2030-2050 yillarda mintaqada havo harorati yana 1,5-3°Sga ko'tarilishi mumkin. Havo haroratining ayniqsa Orolbo'yida ko'tarilishi kutilmoqda, bu esa mahalliy iqlim o'zgarishlari bilan yanada og'irlashadi.

Toshkentda o'rtacha yillik havo haroratining o'zgarish tendensiyalari (O'zgidromet ma'lumotlari bo'yicha)

O'zbekiston iqlim o'zgarishi oqibatlari ta'siriga ko'proq moyil bo'lgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Ekspertlarning baholariga ko'ra atmosferada issiqxona gazlari konsentratsiyasining bundan keyin ham ortishi, qurg'oqchilik natijasida suv va oziq-ovqat tanqisligi xavfini ko'payishiga, issiq mavsum davomiyligi va qizg'inligining oshishi tufayli aholi sonining ortishiga, shuningdek sellar, toshqinlar va boshqa xavfli hodisalarning takrorlanishiga olib keladi. Undan tashqari, bunday ilish ekotizimlar holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, va Orolbo'yi, Qoraqalpog'iston, Surxondaryo, Buxoro va Xorazm viloyatlari kabi mintaqalarda ekologik vaziyatning keskinlashuviga olib keladi.

Global iqlim o'zgarishi va mamlakat tabiiy-resurs kompleksining ana shu o'zgarishlarga ta'sirchanligi izchil iqlimiy siyosatni shakllantirish zaruriyatini belgilaydi.

BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Doiraviy konvensiyasi (BMT IO'DK) iqlim o'zgarishiga qarshi kurash bo'yicha xalqaro harakatlarning asosi bo'lib, atmosferadagi issiqxona gazlari konsentratsiyasini iqlimiy tizimga xavfli antropogen ta'sir ko'rsatishiga yo'l qo'ymaydigan darajada barqarorlashtirishga qaratilgan. O'zbekiston BMT IO'DKga 1993 yilda qo'shildi.

O'zbekistonda BMT IO'DKni amalga oshirish bo'yicha harakatlarni muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazi zimmasiga yuklatilgan.

O‘zbekiston 1999 yilda rivojlangan mamlakatlarga issiqxona gazlari ajratmalarini qisqartirish yoki barqarorlashtirish majburiyatlarini yuklovchi xalqaro bitim – Kioto protokolini ratifikatsiya qildi.

Kuchayib borayotgan iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq global tahdidlarga kompleks javobni mustahkamlash maqsadida, BMT IO‘DKning Kioto protokoli o‘rniga 2015 yil dekabrda Parij bitimi qabul qilindi, u 2020 yilda kuchga kirdi.

2017 yil 19 aprelda O‘zbekiston Parij bitimini imzoladi, 2018 yil 2 noyabrda ratifikatsiya qildi. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-491-son “Parij bitimini ratifikatsiya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni 2018 yil 2 oktabrda qabul qilindi. Bitim O‘zbekiston uchun 2018 yil 9 dekabrda kuchga kirdi.

Parij bitimining maqsadi - IO‘DK amalga oshirilishini faollashtirish, global o‘rtacha haroratning industrialashtirishgacha (1750y.) bo‘lgan darajaga nisbatan 2°S ga saqlab turish hamda haroratning 1,5°S gacha o‘shirishni cheklashga harakat qilishdan iborat, bu 2050 yilga kelib iqlim o‘zgarishi global ajratmalarini 40-70%ga kamaytirishni va 2100 yilga kelib uning 0 yoki manfiy ko‘rsatkichga yetkazishni talab etadi.

Parij bitimini imzolashning zaruriy sharti – mamlakatning 2030 yilga qadar erishmoqchi bo‘lgan issiqxona gazlari tashlamalarini kamaytirishga oid Mo‘ljallanayotgan milliy miqyosda belgilanadigan hissa (MMBH)ni tayyorlash va BMT IO‘DK kotibiyatiga taqdim etish. Milliy miqyosda belgilanadigan hissa (MBH) Parij bitimining global maqsadlariga hissa qo‘shish uchun milliy harakatlarni amalga oshirishni asosiy mexanizmidir.¹

Iqlim o‘zgarishi - bu global atmosferaning tarkibini o‘zgartiradigan va tabiiy sharoitlarga qo‘shimcha ravishda inson faoliyati, antropogen omil bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liq bo‘lgan, taqqoslanadigan davrlarda kuzatilgan iqlim o‘zgaruvchanligi deb ataladigan tabiat hodisasi hisoblanadi. Ushbu ta’rif turli huquqiy manbalar tomonidan eslatib o‘tilgan bir nechta asosiy manbalar va kelishuvlarga asoslangan.

Mutaxassislar iqlim o‘zgarishining asosiy omili issiqxona effekti ekanligini ta’kidlashadi. Quyoshdan kelgan issiqlikning Yer sathida jamlanib, dimlanib qolishi issiqxona effekti deyiladi. Ya’ni quyoshdan kelgan nurni Yer ham o‘z navbatida atmosfera orqali koinotga qaytaradi. Ushbu nurlarning bir qismi koinotga chiqib ketish o‘rniga odamlardan chiqarilgan turli gazlarga yutiladi. Uning koinotga qaytib chiqib ketmasligi oqibatida Yer yuzi me’yoridan ortiq qiziydi va iqlimga ta’sir ko‘rsatadigan issiqxona qatlami hosil bo‘ladi. Natijada sutka mobaynida eng yuqori va eng past harorat orasida kam farq bo‘ladi. Ya’ni odamlar va tabiat tunda ham kunduzgi kabi issiq va dim havo ta’sirida qoladi. Bunday sutkalik issiqlik esa keskin isish hodisasini keltirib chiqaradi.

Issiqxona effektini hosil qiluvchi asosiy gaz bu – karbonat angidrid. U atmosferaga ham tabiiy, ham sun’iy yo‘l bilan qo‘shiladi. Metan, azot oksidi kabi boshqa iflos gazlar havoga inson omili tufayli chiqarilib, bular bir butun issiqxona effekti darajasini belgilaydi.

Issiqxona effektini hosil qiluvchi gaz konsentratsiyalarining ortishi, sayyorada tabiiy issiqlik balansini buzadi va antropogen issiqxona effektini keltirib chiqaradi.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2100 yilga borib issiqxona effekti oqibatida global yalpi ichki mahsulot 20 foizdan ortiqqa pasayishi mumkin.

Shuningdek, hozirgi kunda asosiy muammolar sifatida antropogen omillar ta’siri va qurg‘oqchilik natijasida uglerod gazini yutuvchi o‘rmon maydonlari keskin qisqarib ketishi, ozon qatlamining yemirilishi, yovvoyi tabiat maydonlarining qisqarib borayotganini ham keltirib o‘tish mumkin.

Iqlim o‘zgarishi O‘zbekistonda ham qator salbiy oqibatlarga olib kelyapti:

¹ <https://hydromet.uz/uz/node/609>

- Harorat ko'tarilishi natijasida suvning bug'lanish koeffitsiyenti oshishi hududlarda suv resurslari kamayishiga, tanqisligiga ta'sir etmoqda;
- Ekologik tanglik oqibatida yil davomida umuman yog'ingarchilik bo'lmagan kunlar soni ko'paymoqda;
- Tuproqning namligi kamayishi hisobiga takroriy qurg'oqchilik xavfi ortmoqda va hosildorlik ko'rsatkichlari tushib ketmoqda;
- Orol dengiziga quyiladigan suv hajmining kamayishi daryo deltasining cho'lga aylanishi va qurigan dengiz tubida yangi cho'l maydonlari paydo bo'lishini tezlashtiryapti;
- Atmosfera havosida katta maydonlarda changlanish ortmoqda;
- Isish va sovish kabi anomal hodisalarning o'zgarishi qishloq xo'jaligi mahsulotlari va mevalarning nobud bo'lishiga olib kelmoqda.

Mutaxassislar iqlim o'zgarishining oldini olish uchun bir qancha tavsiyalar berishgan:

- qazib olinadigan yoqilg'idan foydalanishni kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish;
- energiya samaradorligini oshirish va sohalarni energiya tejoychi texnologiyalar bilan modernizatsiya qilish;
- tabiatda yashillikni ko'paytirish, o'rmon yong'inlarining oldini olish, daraxtzorlarni ko'paytirish;
- ekologik toza qishloq xo'jaligiga o'tish;
- tuproq tarkibidagi organik moddalarni saqlab qolish (chunki ularning yo'qolishi to'g'ridan to'g'ri issiqxona effektiga ta'sir qiladi);
- ekologik tejamkor transport turlariga o'tish.

Iqlim ko'rsatkichlarining yil sayin tobora yomonlashib borayotganini insoniyat Yerdan shafqatsizlarcha foydalanishni davom ettirayotgani bilan bog'lash mumkin. Ko'pchilik davlatlar tomonidan bu jarayon xavfsizlikka qarshi eng katta tahdid sifatida ko'rilmogda. Dunyo bo'ylab sodir bo'lgan ayanchli hodisalar ekologik xavfsizlikni ta'minlashning qo'shimcha mexanizmlarini ishlab chiqishga yetarli darajada kuchli turtki berishi kerak.²

Iqlim o'zgarishining xalqaro va milliy qonuniy nuqtai nazardan tan olinmaganligi sababli shaxsga, atrof-muhitga yoki mulkka yetkazilishi mumkin bo'lgan zararni istisno qiladi. Umuman olganda, iqlim o'zgarishi issiqxona gazlarining so'rilishiga olib kelgan inson faoliyati tufayli yuzaga kelgan va kuchayib borayotgan global ekologik xavflardan biri hisoblanadi. Ushbu keng tarqalgan "zamonaviy iqlim o'zgarishi" nazariyasi sanoat inqilobi va atmosferadagi karbonat angidrid, metan va azot kabi issiqxona gazlari kontsentratsiyasining sezilarli darajada oshishini qo'llab-quvvatlovchi dalillarga asoslangan "antropogen global isish" deb nomlanadigan atmosfera havosini zaxarlaydigan, azon qatlamini yemirilishiga sabab bo'ladigan va turli tabiiy ofatlarni olib keladigan, dunyo hamjamiyati tomonidan kata e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan muammodir. "Global atmosferaning tarkibi" - bu ibora global atmosferaning kimyoviy tarkibida, ya'ni unda issiqxona gazlarining mavjudligiga va ko'payib borayotganligiga ishora qiladi.

So'nggi yillarda odamlar, hukumatlar va biznes tashkilotlari iqlim o'zgarishiga qarshi atrof-muhitni muhofaza qilish muhimligini tushunib yetdilar. Iqlim o'zgarishi sayyoramizga qarshi eng muhim

² <https://kun.uz/uz/news/2021/08/12/iqlim-ozgarishi-va-insoniyat-global-isish-natijasida-yuzaga-kelishi-mumkin-bolgan-tahdidlar>

tahdidlardan biri bo'lib, uni atrof-muhitga har qanday potentsial zararining oldini olish va ta'sirini kamaytirish uchun barcha ekologik va huquqiy choralarni ko'rish kerak. Iqlim o'zgarishi, jumladan, uning turlari va natijalari hamma uchun tushunarli emas, chunki iqlim o'zgarishining ilmiy atamalari, qonuniy asoslari, huquqiy va ekologik manbalarning tasniflash usullari va ta'riflarini tushunish juda qiyin. Amaldagi qonunlar, xalqaro hujjatlardagi iqlim o'zgarishi bilan bo'g'liq masalalar va muammolarni hal qilish va ular bilan kurashish usullarini o'rganish uchun huquqiy manbalarning ahamiyatini tushunish zarur. Atrof-muhitni boshqarish sohasida faoliyat yurituvchi yoki atrof-muhitni muhofaza qilish kasbiga qo'shilish istagida bo'lgan har bir kishi uchun ekologik muammolarni hal qilishda duch kelishi mumkin bo'lgan turli xil qonunlar va huquqiy manbalar haqida munosib tushunchaga ega bo'lish juda muhimdir. Shunday qilib, iqlim o'zgarishi qonuni manbalarining umumiy huquqiy asosini izlayotgan har bir kishi uchun atrof-muhitni boshqarish va himoya qilishning ushbu muhim sohasidagi qonunlar nimadan iboratligini bilish uchun ushbu maqolani o'qish foydali bo'ladi.

Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi qonunlar - bu nisbatan yaqinda paydo bo'lgan huquqiy yo'nalish bo'lib, u iqtisodiy va siyosiy landshaftlardagi sayyoraviy o'zgartirishlar natijasida erishilgan muvaffaqiyatga erishish uchun yaqin yillarda yuzaga kelgan iqlim o'zgarishi bilan bo'g'liq ekologik ofatlarning oldini olish va ta'sirini kamaytirishni global tartibga soluvchi, hali ko'pgina savollar javob talab qiladigan, muammoning ko'lami tabiatini hisobga olgan holda ulkan bo'lgan ekologik-huquqiy soha bo'lib, bu soha iqlim o'zgarishining sabablari va oqibatlarini boshqarishda ishtirok etadigan turli xil qonunlardan iborat. Iqlim o'zgarishi bo'yicha huquqiy asoslar butun dunyodagi siyosiy muzokaralarni o'z ichiga olgan global kelishuvlardan tortib, aniq maqsadli va mahalliy qonunlargacha bo'lgan huquqiy topiladi. Bu sohadagi huquqiy manbalarning har bir turi uning asosidan tushunilishi kerak bo'lgan maqsad, hal qilinayotgan masala tabiatiga tayanib atrof-muhit menejmenti talabalari, shuningdek, muayyan milliy qonunlarni ko'rib chiqish va turli xil huquqiy manbalarni qo'llashni aniqlashga yordam beradigan maxsus amaliy tadqiqotlarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

"Iqlim" "ob-havo" bilan bir xil narsa emas. Ob-havo - atmosferaning qisqa vaqt oralig'idagi holati - lahzadan lahzaga yoki kundan-kunga. Ob-havo bir necha daqiqada o'zgarishi mumkin bo'lsa-da, iqlim o'zgarishi uchun yuzlab, minglab, hatto millionlab yillar kerak bo'ladi. Shunday qilib, biz iqlim o'zgarishi haqida gapirganda, biz kunlik ob-havoning uzoq muddatli o'rtacha ko'rsatkichlarining o'zgarishi haqida gapiramiz. Sayyora tez isinmoqda - olimlar Yerning butun tarixini o'rganishlari natijasida bilgan har doimgidan ham tezroq. Biz buni atrofimizdagi ko'rishimiz mumkin bo'lgan dalillardan bilamiz, masalan, issiqlik to'lqinlarining kuchayishi, kuchliroq bo'ronlar, muzlarning erishi va dengiz sathining ko'tarilishi. Bizga ma'lumki, hozirgi iqlim o'zgarishining asosiy sababi issiqxona gazlari, asosan neft, ko'mir va gaz kabi qazib olinadigan yoqilg'ilarni yoqishdir. Bu gazlar (masalan, karbonat anhidrid va metan) Quyosh issiqligini Yer atmosferasida ushlab, sayyorani issiq ushlab turadi. Bu "issiqlona effekti" muhim ahamiyatga ega, chunki u hayotning omon qolishi uchun sayyorani kunduzi yetarlicha issiq, kechasi esa salqin saqlaydi. Ammo juda ko'p gaz ajralib chiqsa, sayyora asta-sekin qizib ketishi mumkin. Bu ko'plab salbiy ta'sirlar bilan iqlimni ko'p jihatdan o'zgartirishi mumkin. Atmosfera tarkibini o'zgartirishi mumkin bo'lgan boshqa omillar - vulqon otilishi yoki quyosh radiatsiyasining o'zgarishi ham iqlim o'zgarishiga yordam beradi. Biroq, bular biz qilayotgan ish bilan solishtirganda juda kichik! Ba'zida manbalarda "iqlim o'zgarishi" o'rniga "global isish" atamasini ishlatishadi. Bu ikki atama turli ma'nolarni anglatadi. "Global isish" - inson faoliyati, birinchi navbatda, qazib olinadigan yoqilg'ining yonishi tufayli sanoatdan oldingi davrda (1850 va 1900 yillar oralig'ida) kuzatilgan Yer iqlim tizimining uzoq muddatli isishi. Boshqa tomondan, "iqlim o'zgarishi" ma'lum bir mintaqa yoki umuman sayyora iqlimining uzoq muddatli, sezilarli o'zgarishi. "Iqlim o'zgarishi" atamasi "global isish" dan ko'ra kengroq qo'llaniladi, chunki u harorat ko'tarilishining barcha ta'sirini tasvirlashga yordam beradi, masalan, yomg'ir va harorat turli joylarga va turli xil tirik mavjudotlarga qanday ta'sir qilishi mumkin. Shunday qilib, bugungi kunda olimlar "global isish" atamasini inson faoliyati tufayli global haroratning oshishini anglatish uchun ishlatmoqdalar - ammo ular hali ham "iqlim o'zgarishi" dan boshqa ko'plab ta'sirlar global haroratning ko'tarilishidan kelib chiqishini tan olish uchun ishlatadilar.

Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishning ahamiyati shundaki, iqlim o'zgarishi inson hayoti va atrof-muhit uchun jiddiy xavf tug'diradigan dolzarb muammodir. Bir qator asosiy sabablarga ko'ra iqlim o'zgarishini hal qilish juda muhimdir. Birinchidan, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda muvaffaqiyatsizlik global isish tezligining sezilarli darajada tezlashishiga olib keladi. Buning bevosita natijalari haddan tashqari namlikning ko'payishini o'z ichiga oladi

Global iqlim o'zgarishi jamiyat, ekotizim va iqtisodiyotning turli jabhalariga ta'sir qiluvchi ko'plab ekologik va huquqiy muammolarni keltirib chiqaradi. Quyida iqlim o'zgarishi bilan bog'liq asosiy ekologik va huquqiy muammolarning umumiy ko'rinishi keltirilgan:

Atrof-muhit muammolari:

1. Haroratning oshishi: issiqxona gazlari, birinchi navbatda, karbonat angidrid, metan va azot oksidlarining ortishi Yer atmosferasining isishiga yordam beradi. Bu ob-havo sharoitlarining o'zgarishiga, global haroratning oshishiga, issiqlik to'lqinlariga va iqlim sharoitlarining o'zgarishiga olib keladi.

2. Ekstremal ob-havo hodisalari: Iqlim o'zgarishi bo'ronlar, qurg'oqchilik, toshqinlar va yong'inlar kabi ekstremal ob-havo hodisalarini kuchaytiradi. Ushbu hodisalar jamoalar, infratuzilma, qishloq xo'jaligi va ekotizimlarga halokatli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3. Dengiz sathining ko'tarilishi: qutb muzliklari va muzliklarning erishi dengiz sathining ko'tarilishiga yordam beradi, bu esa qirg'oq jamoalari va yashash joylariga tahdid soladi. Toshqinning kuchayishi, chuchuk suv manbalariga sho'r suvning kirib kelishi va eroziya ba'zi oqibatlardir.

4. Biologik xilma-xillikning yo'qolishi: Iqlim o'zgarishi ekotizimlar va yashash joylarini buzadi, bu turlarning tarqalishi, yo'qolib ketish xavfi va biologik xilma-xillikning yo'qolishiga olib keladi. Bu quruqlik va dengiz ekotizimlariga ta'sir qiladi, oziq-ovqat tarmoqlari va ekotizim xizmatlariga kaskadli ta'sir ko'rsatadi.

5. Okeanning kislotalanishi: Atmosferada karbonat angidrid miqdorining ko'payishi CO₂ ning okeanlarda eriydi, bu esa okeanning kislotalanishiga olib keladi. Bu dengiz hayotiga, xususan, marjonlar, qisqichbaqalar va plankton kabi kaltsiy karbonat qobig'i bo'lgan organizmlarga zarar etkazadi.

Huquqiy masalalar:

1. Xalqaro shartnomalar va kelishuvlar: Iqlim o'zgarishi issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va uning ta'siriga moslashish uchun xalqaro hamkorlik va kelishuvlarni talab qiladi. Masalan, Parij kelishuvi global isishni sanoatdan oldingi darajadan 2 darajadan ancha past darajagacha cheklash va uni 1,5 daraja Selsiy bo'yicha cheklash bo'yicha sa'y-harakatlarni davom ettirishga qaratilgan.

2. Milliy qonunchilik va tartibga solish: Ko'pgina mamlakatlar iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish uchun qonunlar va qoidalarni qabul qildilar, jumladan emissiyalarni kamaytirish maqsadlarini belgilash, qayta tiklanadigan energiya siyosatini amalga oshirish va uglerod solig'i yoki chegara va savdo tizimlari kabi uglerod narxini belgilash mexanizmlarini o'rnatish.

3. Sud jarayoni: Iqlim o'zgarishi bo'yicha sud jarayonlari iqlim o'zgarishiga qo'shgan hissasi yoki uning ta'sirini etarli darajada bartaraf eta olmaganligi uchun hukumatlar, korporatsiyalar va boshqa tashkilotlarga qarshi qonuniy harakatlarni o'z ichiga oladi. Bunga uglerod chiqindilari, atrof-muhitga yetkazilgan zarar va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq inson huquqlarining buzilishi bilan bog'liq da'volar kiradi.

4. Moslashuv va chidamlilik: Moslashuv sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash va iqlim o'zgarishi ta'siriga chidamlilikni oshirish uchun, ayniqsa, qishloq, suv resurslari va infratuzilma kabi zaif jamoalar va sektorlarda huquqiy asoslar zarur. Bu rayonlashtirish qoidalari, qurilish qoidalari va yerdan foydalanishni rejalashtirishni o'z ichiga olishi mumkin.

5. Iqlim adolati: Iqlim o'zgarishini hal qilish tenglik va adolat masalalarini ko'taradi, chunki uning ta'siri issiqxona gazlari emissiyasiga kamroq hissa qo'shgan marginal jamoalar, mahalliy xalqlar va rivojlanayotgan mamlakatlarga nomutanosib ravishda ta'sir qiladi. Huquqiy bazalar iqlim o'zgarishini yumshatish va moslashish sa'y-harakatlarida resurslar va imkoniyatlarning adolatli va adolatli taqsimlanishini ta'minlashi kerak.

Umuman olganda, global iqlim o'zgarishining ekologik va huquqiy muammolarini hal qilish hukumatlar, biznes, fuqarolik jamiyati va shaxslarni jalb qilgan holda xalqaro, milliy va mahalliy darajada muvofiqlashtirilgan harakatlarni talab qiladi.

Atmosfera havosini himoya qilish huquqiy bazasini rivojlantirishi yoki himoya qilish choralari qo'llashi uchun avvalo, atmosfera himoyasi, ozon qatlami, zararli va zaharli gazlar hududiy emissiya chegaralari, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq o'zi joylashgan mamlakat milliy qonunchiligini o'rganishi, so'ngra davlatlararo, mintaqalararo yoki xalqaro hujjatlarga e'tibor qaratishi lozim.

Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq milliy qonun hujjatlarini o'rganish, tahlil qilish, xalqaro hujjatlar bilan o'xshashlik va istisno holatlarini aniqlash, boshqa mamlakatlar milliy qonunchiligini va masalaga doir yechimlar beradigan chora-tadbirlarni o'rganish yoki xalqaro eko huquq amaliyotida yuz bergan kazuslar va muammoli vaziyatlarni, xalqaro sud pretsidentlarini o'rganish orqali atmosfera havosini himoya qilishga doir masalalar yuzasidan milliy qonunchilikka yoki tegishli xalqaro tashkilotlarga qonunchilik takliflari va samarali qonunchilik mexanizmlarining nazariy asoslari bayon qilingan tezislar bilan murojaat qilishi mumkin.

Ma'lumki, atmosfera havosi yoki hududi ma'lum yer yuzidan balandlikkacha milliy qonunchilikka, undan oshsa xalqaro huquqa taaluqli bo'ladi. Ma'lum mamlakatning biror atmosfera havosini zaharli gazlardan himoya qilish, ozon qatlamini yemiradigan zararli chiqindi gazlarini qisqartirish yoki iqtisodiy cheklovlar, sanksiyalar bilan bog'liq qabul qilgan milliy qonuni faqat o'sha mamlakat yoki u bilan chegaradosh mamlakatlarga, agar, ular hujjatni qabul majburiyat yuklaydi. Lekin global ekologik muammolarni hal qilish uchun xalqaro ekologiya huquqi, xalqaro eko hujjatlar, xalqaro eko tashkilotlar tashkil etilishi yoki faoliyatining samaradorligi oshirilishi, vakolatlari kengaytirilishi kerak. Agar yaqin 50 yil ichida dunyo mamlakatlari xalqaro ekologiya huquqi va majburiyatlariga e'tibor qaratmasa sayyora yashash uchun yaroqsiz holatga kelib qoladi. Sababi, aholi salomatligi, atrof-muhit sifati, iqlim o'zgarishi, havo ifloslanishi, ozon qatlamining yemirilishi, yovvoyi tabiatning qirilib ketishi, suv va oziq-ovqat muammolari insonlar, mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning yagona ekologik siyosat yuritmayotganligidadir. Chunki atmosfera havosi himoyasi kabi yuzlab ekologik konvensiya va boshqa hujjatlar tor doiradagi mamlakatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan, ratifikatsiya qilgan mamlakatlarning ham katta qismi bu hujjatlarga amal qilmaydi, natijada atrof-muhitga zarar yetishi ortaveradi, buni oldini olish, kamaytirish choralari ko'rilmay qolib ketaveradi. Hujjatni qabul qilgan bilan uni ijrosini ta'minlamaslik ham katta muammo. Xalqaro ekologik hujjatlarni qabul qilgan va ularni ijrosini ta'minlamagan, atrof-muhitga, havoga, ozon qatlamiga zarar yetkazayotgan mamlakatlar, tashkilotlarga sanksiyalar qo'llash yoki javobgarlikka tortish, faoliyatini to'xtatish, kompensatsiya undirish bilan bog'liq masalalar huquqiy mexanizmi bilan bog'liq muammolar xalqaro ekologiya huquqida amalga oshirilishi kerak bo'lgan islohotlar va chora-tadbirlarga yaqqol misol hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda atmosfera havosining ifloslanishi, ozon qatlamining yemirilishi va buning oqibatida yuz beradigan iqlim o'zgarishini oldini olish, unga qarshi samarali kurashish uchun mamlakatlar xalqaro, mintaqalararo, davlatlararo yoki milliy darajada ilmiy izlanishlar olib borishi, ilmiy va huquqiy konferensiyalar tashkil etishi, o'zaro huquqiy va ilmiy tajriba almashishi, qonunlar, protokollar, konvensiyalar, bitimlar va xalqaro paktlar qabul qilinishi va mamlakatlar tomonidan ratifikatsiya qilinishi, milliy qonunchilikka tatbiq etilishi zarur. Konvensiya, protokol yoki xalqaro pakt kabi hujjatlar asosan dispozitiv ya'ni, tavsiyaviy xarakterda ishlab chiqiladi, atmosfera

havosi ifloslanishi, ozon qatlamining yemirilishi va iqlim o'zgarishi kabi global va eng muhim masalalarda qabul qilinadigan xalqaro hujjatlar asosan imperativ, ya'ni, barcha uchun majburiy shaklda bo'lishi zarur. Xalqaro hujjatlar biror majburiyat yuklashi yoki javobgarlikni keltirib chiqarishi uchun ushbu hujjatni tomonlar o'z milliy qonunchiligiga ratifikatsiya qilishi mumkin, konvensiyaga a'zo bo'lishi, xalqaro munosabatning ishtirokchisi bo'lishi zarur, xalqaro ekologik huquqda kuchli qonunchilik bazasi, standartlar, zararli gazlar emissiya chergarasi va mustahkam ijro mexanizimining yaxshi ishlamasligining sababi ham shunda. Masalan, aksariyat sanoati rivojlangan mamlakatlar atmosfera havosining ifloslanishini oldini oladigan yoki kamaytiradigan Xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilmagan yoki xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lmagan, bu bilan ushbu mamlakatlar xalqaro sanoat va ishlab chiqarish xalqaro standartlariga amal qilmaydi, emissiya chegaralaridan ortiq hajmda zaharli gazlar ishlab chiqaradi, bu holatda ularning bu harakatlarini cheklash, majburiyat yuklash, javobgarlikka tortish uchun asos mavjud topish qiyin bo'ladi.

Atrof-muhit ifloslanishiga qarshi samarali kurashish yagona mexanizmini ishlab chiqarish zarur. BMT, Xalqaro ekologiyani himoya qilish tashkilotlari, Xalqaro sudlarning vakolatlari va ta'sir doirasini kengaytirish zarur. Xalqaro eko hujjatlarning yurisdiksiya doirasini qaytadan ko'rib chiqish zarur. Maslahat yoki tavsiyaviy normalar o'rniga majburiy normalarni ko'paytirish zarur. Insonlarni atrof-muhitni muhofaza etishga, ekologik muammolarga befarq bo'lmaslikka chaqiradigan targ'ibot ishlarini xalqaro miqyosda amlaga oshirish zarur. Zararli gazlar chiqaradigan tashkilotlarga kreditlarni qisqartirish, imtiyozlarni yo'qotish, sanksiyalar qo'llash bilan bog'liq milliy va xalqaro hujjatlarni ko'paytirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet tarmoqlari:

1. <https://kun.uz/uz/news/2021/08/12/iqlim-ozgarishi-va-insoniyat-global-isish-natijasida-yuzaga-kelishi-mumkin-bolgan-tahdidlar>
2. <https://hydromet.uz/uz/node/609>